



IJTIMOYIY TARMOQLARDA HIS-TUYG‘U IFODALOVCHI VOSITALAR

Sevinch Nu‘monova,
Qarshi davlat universiteti
Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Siz ushbu ilmiy tadqiqot orqali ijtimoiy tarmoq va platformalarda qay tarzda kulgichlardan foydalanish unumli ekanligini anglaysiz. Emoji, stiker, gif, kulgich kabilarning ham bir-biridan farqli jihatlari va umumiy xususiyatlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: emoji, stiker, gif, telegram, kanal-guruh, platforma, raqamli va vizual aloqa, format, kulgich.

XXI asr — texnologiyalar zamoni bo‘lib, bu davrda texnik vositalar orqali kommunikatsiya jarayoni bir muncha oson, qulay va tez. Makon va zamon qarshiliklarisiz, xoh so‘zlashuv, xoh ilmiy, xoh rasmiy mavzularda bo‘lsin, bimalol suhbat qura olamiz, fikr bildira olamiz. Bunda bizga telegram messengeri, instagram va You Tube ijtimoiy tarmoqlari, sms xabarnoma va boshqalar yordam beradi. Kommunikatsiya jarayonida nafaqat so‘zlardan, balki his-tuyg‘ularni erkin va jozibador tarzda ifodalashga yordam beruvchi vositalar — emoji, stiker, gif va kulgichlar (smaylik)dan ham foydalanish kutilgandan ko‘ra samaraliroqdir. Bu vositalarning har birining o‘z o‘rni va mohiyati mavjud. Shu bilan bir qatorda mazmun jihatdan ham bir-biridan farq qilib turadi.

Bugungi kunda raqamli aloqa uzundan uzun jummalarni yozishdan ancha uzoqlashadi. Har qanday ijtimoiy tarmoqqa qarab, qanchadan qancha gullar, qalblar, hayvonlar, oziq-ovqat va boshqa tasvirdagi belgilarni ko‘rish mumkin. Ular – **emoji!**

Stiker – bu multfilmlar va yaponcha tabassumga o‘xshash “emojilar” aralashmasi bo‘lgan his-tuyg‘u yoki harakatni ifodalovchi qahramonning batafsil tasviri. Stikerlar animatsiyalar ya‘ni harakatlanuvchi rasmlar orqali muloqotga kiritiladi. Stikerning ikkinchi ma‘nosi ham bo‘lib, u yorliq turini anglatadi. Bu turdagi stikerlar tovarga yopishtiriluvchi qog‘oz plastmassa yoki boshqa material ham bo‘lishi mumkin.

Biz fikr yuritayotgan stiker esa birinchi izohlangan, ya‘ni emoji bilan o‘rindosh bo‘lgan stikerdir. “2013-yil aprel oyida Facebookning asosiy va Facebook Messenger mobil ilovalari paydo bo‘ldi. Iyul oyida stiker funksiyasi Facebook veb-interfeysiga kengaytirildi, Kick Messenger ham stikerlarni qo‘shdi. Stikerlarga bag‘ishlangan startap kompaniyalari ham paydo bo‘ldi va ularni reklama kompaniyalari doirasida brendlar nomidan ishlab chiqarishga yordam berdi” [1].

Gif (inglizcha: “Graphics Interchange Format”) — rasmlarni almashtirish formati. “Qisqartmaning talaffuzi 1990-yildan buyon bahsli bo‘lib keladi. Talaffuzning ikki variantidan foydalanib kelinadi: /dizf/ (jang so‘zidagi “j” tovushi



bilan), /gif/ (gul soʻzidagi “g” tovushi bilan). Format yaratuvchisi Steve Wilhite 2013-yilgi “Webby Awards” tanlovida nutq soʻzlab, g bilan talaffuz toʻgʻri ekanligini aytgan” [2]. Giflar, odatda, qisqa, takrorlanuvchi animatsiyalarni koʻrsatish uchun ishlatiladi.

Kulgichlar (smaylik) matematik shakllar, tilshunoslikdagi punktuatsion ishoralar va yana turli xil belgilar tizimidan tashkil topgan va bu belgilar qorishuvidan oʻxshatmalar hosil qilingan. Kulgichlarning ham foydalanish maqsadiga koʻra oʻz maʼnaviy guruhlari bor:

- norozi qiyofa;
- imo-ishoralar;
- yigʻi;
- asabiylik;
- tabassum va boshqalar...

Oddiygina “Telegram” messengerining oʻzida fikrni qisqa va taʼsirli ifodalashga yordam beruvchi vositalarning 4 turidan foydalanish imkoni mavjud. Bular: stikerlar, emojilar, giflar, kulgichlar. Ular paradigma aʼzolari kabi xususiyatga ega, yaʼni umumiy va xususiy belgilari mavjud.

Umumiy belgisi: bularning barchasi raqamli aloqa uchun ishlatiladigan vizual ifodalardir. Lekin ularning har biri turli maʼnolar va ishlatilish usullariga ega.

Farqli belgisi:

1. Emoji

—Taʼrifi: kichik rasm yoki belgi, his-tuygʻular, narsalar yoki har xil tushunchalarni ifodalaydi.

—Qoʻllanilishi: matnda his-tuygʻularni va kayfiyatni ifodalashda ishlatiladi.

Masalan, 😊 (kulib turgan yuz), ❤️ (qizil yurak), 🙌 (qarsak)

—Format: har bir emoji standart Unicode kodida mavjud boʻlib, u har bir platformada (iOS, Android, Windows) bir xil yoki oʻxshash koʻrinishda boʻlishi mumkin.

2. Stiker

—Taʼrifi: koʻproq oʻziga xos dizaynlangan rasm.

—Qoʻllanilishi: odatda, ulardan xabar almashish dasturlarida (Whatsapp yoki Telegram) qoʻllaniladi va koʻproq kulgili yoki maxsus mavzudagi hissiyotlarni ifodalashda ishlatiladi.

—Format: ular koʻp hollarda rasm sifatida yoki animatsiya sifatida mavjud boʻladi va koʻproq personalizatsiyalangan uslublarni taklif etadi.

3. Gif



—Ta’rifi: qisqa animatsiyalangan rasmlar bir necha soniya davomida ko’rsatiladi.

—Qo’llanilishi: ular juda ko’p turli xil his-tuyg’ularni yoki g’oyalarni ifodalash hazil-mutoyibalar qilish va o’yin-kulgi uchun ishlatiladi. Ular ko’pincha ijtimoiy tarmoqlarda xabar almashish dasturlarida yoki saytlarida paydo bo’ladi.

—Format: gif fayl formati yangidan yuklanadi yoki ijtimoiy tarmoqdan olinadi va ko’plab platformalarda qo’llaniladi.

Umumiy qilib aytganda, emoji oddiy va tez ifoda shakli bo’lsa, stikerlar va giflar ko’proq vizual va dramatik ta’sir ko’rsatadi. Matnda kulgich yuzlari va tabassumlardan foydalanish xabarlarini yanada qiziqarliroq qiladi.

Yuqoridagi belgilarni turli kontekstlarda samarali qo’llash bo’yicha ko’rsatmalar:

1. **Ma’nolarni tushuning.** Har bir emoji ma’lum bir his-tuyg’u yoki hissiyotni bildiradi, shuning uchun ularning ta’riflari bilan tanishishga vaqt ajrating. Masalan, tabassumli yuz baxtdan dalolat beradi, quvonch ko’z yoshlari esa haddan tashqari kulishni anglatadi.

2. **Kontekstni ko’rib chiqing.** Xabaringizning ohangi va maqsadiga e’tibor bering va umumiy muloqotga mos keladigan kulgichlarni tanlang. Tasodifiy suhbatlar uchun o’ynoqi va yengil kulgichlar mos keladi, professional sozlamalar esa ko’proq neytral yoki rasmiy tanlovlarni talab qilishi mumkin.

3. **Tejamkorlik bilan foydalaning.** Xabaringizni haddan tashqari ko’p belgilar bilan aralashtirib yubormasdan, o’zingiz yetkazmoqchi bo’lgan his-tuyg’ularni qamrab oladigan bir nechta kulgichlarni tanlang.

4. **Aralashtiring va moslashtiring.** Xabar mazmunini kuchaytirish uchun turli emoji yuzlari va tabassumlarni birlashtirish bilan tajriba qilishdan qo’rqmang. Misol uchun, tabassum bilan birga bosh barmog’ini ko’targan kulgichdan (😊 👍) foydalanish ma’qullik va ijobiylikni ko’rsatishi mumkin.

5. **Madaniy farqlardan xabardor bo’ling.** Emoji ma’nolari va talqinlari turli madaniyatlarda farq qilishi mumkinligini doimo yodda tuting. Ya’ni bir mamlakat yoki jamiyatda umumiy tushunilishi mumkin bo’lgan narsa boshqa joylarda butunlay boshqacha ma’noga ega bo’lishi mumkin, xuddi nutqiy muloqotdagi farqlar kabi.

Nutqiy muloqotdagi madaniyatlararo farq: “Toshkent va vodiya xayrlashuv chog’idagi “biznikiga boringlar” ifodasi shunchaki mulozamat tariqasida qabul qilinsa, Xorazmda esa bu ifoda o’z ma’nosida tushunilib, ertasiga mehmonga boriladi” [3, B.67]. Emojilarda ham shunga o’xshash millatlar va madaniyatlararo



tafovutlar uchraydi. Ularning madaniyatlarda farq qilishi madaniyatlararo muloqotda noto'g'ri talqin va tushunmovchiliklarga olib keladi. Bu o'zgarishlarni tushunish globallashtirilgan jamiyatda muloqot uchun juda samarali. Farq faqat madaniyat yohud til o'rtasida emas, balki auditoriya nuqtayi nazaridan ham bo'ladi. Yaqin do'stlar orasida mos bo'lgan kulgichlar rasmiy muhitda bir xil ta'sirga ega bo'lmasligi mumkin. Emojilarni qanday matnda va qachon samarali qo'llash mumkinligini bilish uchun ularning ma'nolari juda muhim. Masalan:

- 1) Bosh barmog'ini ko'tarish (👍) — ma'qullash yoki kelishish; (“*Odamlar buning juda yaxshi fikr ekanligini aytishardi*”) [6, B.124].
- 2) Qarsak chalish (👏) — kimnidir olqishlash yoki tabriklash; (“*Fugui, sen va oilanga rahmat. Juda yaxshi natijaga erishdingiz*”) [6, B.141].
- 3) Ko'zlar (👁️) — qiziqish yoki hushyorlik tuyg'usi; (“*Fengxia qo'lida guruch boshhoqlari bilan bizga qarab turar, Longerga ma'nosiz boqardi*”) [6, B.63].
- 4) Qo'llarni siqish (🤝) — kelishuv, sheriklik va do'stona ifoda; (“*Siz shu yerda kuting, men olib kelaman,—dedi. Kutdim, kutaverdim*”) [7].
- 5) Olov (🔥) — ajoyib; (“*Barakalla, taqsir, barakalla*”) [8].
- 6) Jilmayga yuz (😊) — baxt, quvonch yoki zavqlanish ifodasi; (“*Borib dam olishini tayinlasam, xursand bo'lib kulimsirardi*”) [6, B.66].
- 7) Shodlik ko'z yoshlari bilan yuz (😂) — qattiq kulish, haddan tashqari zavq; (“*Onam yuzida sevinch yoshlari bilan menga qarab, “Senga aytgandim-ku”,—dedi*”) [6, B.66].
- 8) Chiroq (💡) — yorqin g'oya yoki ilhom; (“*Toji qassobning qizi Turg'unbush yugurib borib, og'ilning tomiga chiqdi-da, bir chekkaga bosib qo'yilg'on tut o'tinidan bitta uzun butoqni sindirib olib, hovuz bo'yiga keldi va haligi butoq bilan suvni o'z tomonig'a torta boshladi*”) [8].
- 9) Qulf (🔒) — xavfsizlik, himoya, mahfiylik; (“*Biz chayqovchimiz, orqamizdan taftishchilar, militsiyalar tushgan. Siz bormang, boshingiz baloga qoladi*”) [7].
- 10) Kitob (📖) — bilim; (“*Mato jildli “Bin Im klassikasi” nomli kitobni qo'limga olib, o'rnimdan turdim va o'qituvchimga qarab: “Yaxshilab quloq osing! Otangiz sizga bir matnni o'qib beradi!”,—degandim*”) [6, B.13].
- 11) Sovg'a (🎁) — bayram, tug'ilgan kun, yubiley; (“*Yo'ldosh boyvachcha o'n botmon guruch, bitta yaxshi uloqchi ot, bosh-oyoq kiyim berdi*”) [8].



12)Toj (👑) — muvaffaqiyat, tugun; (“*Boshini qimirlatib: “Imperator bir parcha non uchun tilamchilik qilsa ham, u imperatordir”*”) [6, B.41].

13)Gul (🌷) — bahor, go‘zallik, sevgi (“*O‘sha mahallar Jiashen nihoyatda go‘zal edi*”) [6, B.30].

Boshqa emoji, stiker, kulgichlar ham o‘ziga xos ma’ nolarga ega.

His-tuyg‘u ifodalovchi vositalarning ijtimoiy tarmoqlarning ayrimlarida ishlatilish darajasi:

Telegram messenjerida — emoji, stiker, gif, kulgich;

You Tubeda — faqatgina stiker;

Instagram ijtimoiy tarmog‘ida — emoji, stiker, gif, kulgich;

Facebookda — faqatgina stiker.

Xulosa: Onlayn aloqa olamida emojilar — his-tuyg‘ularni ifodalash va xabarlarni yetkazish uchun muhim vosita. Biroq emojilarning o‘zi har doim ham ko‘zda tutilgan ma’noni to‘liq yetkaza olmaydi. Ular orqali faqatgina uzatilayotgan xabarga chuqurlik va ijodkorlik qo‘shish mumkin. Shunda ham ulardan tejamkorlik bilan o‘rinli foydalanish zarur. Emojilar ifodaviylikni oshirishi mumkin bo‘lsa-da, haddan tashqari ko‘p foydalanish xabarni chalkashtirib yuborishi va ularning ta’sirini susaytirishi, hatto ma’noni o‘zgartirib yuborish ehtimoli bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stiker — Wikipedia.org.
2. Uz.m:Wikipedia.org.
3. Shoira Usmanova, Gulchehra Rixsiyeva. Madaniyatlararo muloqot. —Toshkent, 2017. —67b.
4. Hamidulla Dadaboyev, Shoira Usmanova. Xorijiy sotsiologiyat. — Toshkent: Universitet, 2014. -136b.
5. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. 5th ed. —New York: McGraw-Hill, 2010. -528p.
6. Yuy Xua. Yashamoq. — Huzur nashriyoti, 2024. —13; 30; 41; 63; 66; 124; 141b.
7. <https://teletype.in/@xushnudbek/aziz-nesin-siz-biroz-kuting>.
8. <https://teletype.in/@xushnudbek/abdulhamid-cho‘lpon-qor-qo‘ynida-lola>.